



KREDIT-MODUL TIZIMI JORIY QILINGAN OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH VA UNING MOLIYAVIY NAZORATI

T.P. Berdiyev

Toshkent to 'qimachilik va yengil sanoat instituti, "Buxgalteriya hisobi va marketing" kafedrası Katta o'qituvchi

e-mail: toshken_0302@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish jarayonida moliyalashtirish mexanizmlari va moliyaviy holat tahlilini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larining shakllanishi, ulardan samarali foydalanish, xarajatlar strukturasi va moliyaviy ko'rsatkichlar monitoringi takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maqsadga erishishning sinalgan usuli – bu to'plangan bilim, shakllangan ko'nikma va orttirilgan tajribalarni mushtarak maqsad sari samarali uyg'unlashtirish hisoblanadi. Ta'lim tizimi samaradorligini ustozning saviyasi, talabani ilm olishga bo'lgan ehtiyoji, darslik va o'quv adabiyotlari mazmuni hamda sifati, mustaqil ta'limni o'quv-uslubiy bazasi kabi bir qancha omillar ta'minlab beradi. Zamonaviy mutaxassislarni mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash, kreativ mushohada qiladigan kadrlarni yetishtirish ta'lim jarayonini yangicha tashkil etishga bevosita bog'liqdir.

Binobarin, Prezident tomonidan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim tashkilotini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kiritish va o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" [1] belgilab qo'yildi.

Kredit-modul tizimi – bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra va murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash [2].

Modul – bu o'quv jarayonida talaba tomonidan o'zlashtiriladigan bir necha fanlar yoki kurslar majmui bo'lib, u o'quv rejasining bir bo'lagidir. Bunda professor-o'qituvchi tomonidan o'quv jarayoni tashkil etiladi, jonli, video va audio ma'ruzalar o'qiladi, talabaning faoliyati muvofiqlashtiriladi. Hozirda bu jarayonlar Hemis kompyuter dasturi orqali amalga oshirilmoqda.

Ilg'or xalqaro tajribaga murojaat qilsak, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2 – 4 tagacha moduldan iborat ekanligini guvohi bo'lamiz. Modul tarkibidagi fanlar oddiydan murakkabga qarab o'sib boruvchi tartibda, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqan bir-birini uzviy ravishda to'ldirish tamoyili asosida shakllantiriladi.

Modul tarkibiga kirgan har bir fan bo'yicha Sillabuslar ishlab chiqiladi. Unda fanning qisqacha mazmuni: ma'ruzalar mavzulari, amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar, o'qitishning qisqacha bayoni, ta'lim berish usul hamda vositalari, talabalar bilimini baholash tartibi yoritiladi.

Kredit atamasi esa, talabaning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki kursi bo'yicha fanlarni o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligi sifatida ta'riflanadi. Masalan, talabaning bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovini bir kredit deb belgilasak, amaldagi meyoriy hujjatga binoan, kredit talabaga ma'lum bir fandan yuklatilgan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Mamlakatimizda byudjet tashkilotlarini qisman o'z-o'zini moliyalashtirishi bo'yicha dastlabki normativ hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori hisoblanadi [3]. Chunki aynan shu qaror bilan byudjet tashkilotlariga rivojlantirish jamg'armasini shakllantirish huquqi berilgan bo'lib bu amalda ularga qo'shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratdi.

Shu o'rinda byudjet tashkilotlarini o'z-o'zini moliyalashtirishida byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarining rolini ta'kidlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [4]. Ushbu qarorga muvofiq, 2020 yil 1 yanvardan boshlab, 10 ta oliy ta'lim tashkiloti tajriba-sinov tariqasida ushbu tizimga o'tkazilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim tashkilotlariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2022 yil 1 yanvardan boshlab, 40 ta oliy ta'lim tashkilotiga moliyaviy mustaqillik berildi [5].

Hozirgi paytda xo'jalik subyektlari moliyaviy holatini tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan amalga oshirilmoqda [6]. Biroq, mazkur qarorda byudjet tashkilotlari rentabelligini aniqlash, ularning moliyaviy barqarorligini baholash, likvidlik koeffitsiyentlarini hisoblash hamda bozordagi aktivligini tahlil qilish kabi muhim masalalar soha xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z aksini topmagan. Demak, ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining muhim strategik ahamiyatini inobatga olib, yuqoridagi kabi meyoriy hujjatni ishlab chiqish va tasdiqlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida, mamlakatimizda byudjet tashkilotlarini o'z-o'zini moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1. Byudjet tashkilotlarida o'z-o'zini moliyalashtirish hamda kredit-modul tizimining tashkiliy, iqtisodiy va meyoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

2. Byudjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar tarkibini qayta ko'rib chiqish va ularni yangidan turkumlash orqali xususiy sektorni xizmatlar sohasiga keng jalb etish maqsadga muvofiq.

3. Byudjet tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar qiymatini ular ko'rsatadigan xizmatlarning bozor baholari bilan mutanosibligini ta'minlash zarur.

4. Hukumat qarori bilan o'z-o'zini moliyalashtirishga o'tgan byudjet tashkilotlarining moliyaviy holatini yaxshilash va moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq imtiyozlarini saqlab qolish lozim, degan fikrdamiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>.
2. SH.Mustafakulov, M.Sultanov. Oliy ta'limda kredit-modul tizimiga o'tish nima uchun kerak? Maqsad, mohiyat va afzallik uyg'unligi. – T.: "Xalq so'zi", 2020 yil 5 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabrdagi 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/319286>.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda 967-son "Oliy ta'lim tashkilotlarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/4628440>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim tashkilotlariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5793251>.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrda 1013-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/4106617>.